

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

Alisher Navoiy nomidagi  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Ijtimoiy - iqtisodiyot

Yo`nalish: Ijtimoiy ish

Fan: Umumiy sotsiologiyasi

# REFERAT

**Mavzu: ANTIK DUNYO SOTSILOGIYASI**

Bajardi: Hamdamov Umedjon

Tekshirdi: dost. Bo`riyev N.

Samarqand

# ANTIK DUNYO SOTSILOGIYASI

## REJA:

1. Stratifikasiya sosiologiyaning asosiy tushunchalari
2. Antik dunyo sosiologlari inson mavqeyi to'g'risida.
3. qadimgi grek sosiologiyasi mustagil ijtimoiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida
4. Antik dunyoda jamiyat va shaxs omillari.
5. Platon va Aristotelning antik dunyo falsafiy fikr taraqqiyotida tutgan o'rni.
6. Xulosa.
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Antik dunyo sosiologiyasi, jaxon sosiologiya maktabining nazariy-ma'naviy poydevori va unga doimiy ilxom bag'ishlovchi bebaxo obidasi xisoblanadi.

Antik dunyo xayotiga insonni inson tomonidan sotish va sotib olish tartibotlarining kirib kelishi bilan tabiatni o'rzlashtirish, tabiat bilan xamkorlik qilish va u bilan uyg'unlashish o'rniga insonni ekspluatatsiya qilish davri boshlandi. Bu esa antik davr uchun xos bo'lgan insonning ma'naviy xurligi davrining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ldi.

Antik davr sosiologiyasi o'rzi yuzaga kelgan davr ijtimoiy tuzumi va tartibotlari, davlat va jamiyat gurilishi, ana shu tizimlardagi shaxslarning o'rni va roli, siyosiy va ma'naviy xayot jarayonlarining yorgin va real ifodalovchisi sifatida g'oyatda saboqlidir.

Antik davr sosiologiyasining ilk namunalari Kichik Osiyoning Qarbiy soxillari - Ioniya o'lkasi shaxarlarida yashovchi greklar tomonidan dunyoga keltirildi.

Antik dunyo sosiologiyasini yuzaga kelishi xamda taraqqiyot tendensiyalari xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda uni shartli ravishda guyidagicha guruxlash mumkin:

1. Eng qadimgi grek sosiologiya maktabi. Bu guruxga eramizdan oldingi XII asrda yashab ijod etgan g'omerdan boshlab eramizdan oldingi VI asrgacha amal qilgan Milet (kichik Osiyodagi eng yirik shaxar) maktabi vakillari (Fales, Anaksimandr, Anaksimn) xamda g'resiyaning turli shaxarlarida yashab faoliyat yuritgan Ksenofan Pifagorning sosiologik qarashlarini kiritish mumkin.

Eng qadimgi grek sosiologiyasi mustagil ijtimoiy-nazariy tadqiqot predmeti sifatida emas, balki aniq tabiiy fanlar, ya'ni matematika va tabiatshunoslik bergan ilk tadqiqot natijalari bilan ijtimoiy fanlar, xususan mifologiya va san'at borasida erishilgan dastlabki tafakkur maxsullarining uyg'unlashuvi ogibatida yuzaga kelgan.

Milet filosoflarining to'rtinchi vakili **Falesning** fikricha, jamiyat va tabiatning asosini dastlabki tarkibiy modda xisoblangan suv omili tashkil etadi. Uning ta'kidlashicha, tabiatdagi ja'mi o'rzgarishlar suv va suyuqliklar tufayli ro'ry beradi. Suv tufayli tarkib topgan xamma narsada jon mavjuddir. Tabiatdagi ja'miki narsalar esa suv ishtirokida yuzaga kelganligi sababli ularning xammasida jon bor. Fales fikrining isboti uchun yantar toshini misol gilib keltiradi. Falesning xamma narsada jon borligi g''oyasi tabiat va jamiyatga insoniy yondoshuvning ilk kurtaklari shakllanishiga turtki bo'ldi.

Milet maktabining yana bir yirik namoyondasi **Anaksimen** olamning asosini tashkil etuvchi dastlabki modda sifatida xavoni iloxiylashtiradi, xavoning tabiatda yig'ilishi va sigilishi natijasida suv, tuproq, tosh va olovdan iborat zaruriy gismlar yuzaga keladi. O'Tavo Anaksimen nazarida dunyoni o'rab turgan nafas bo'lib, bu narsa tabiatdagi ja'miki narsalarga o'rz ta'sirini o'rtkazib turadi. O'Tavo insonning amal gilish makoni xisoblanadi va xavosiz qolgan paytda xar qanday jism tarkibiy va mazmuniy o'rzgarishga yuz tutadi.

Jadimgi grek sosiologlari orasida Samos shaxrida tug'ilib faoliyat yuritgan **Pifagor** aloxida o'rin tutadi. Pifagor yashagan davrda turli-tuman primitiv arxaik diniy mutaassiblik o'rniga nisbatan umumiyroq moxiyat kasb etuvchi xudolarga sig'inish taomilga kira boshladi. Pifagor nuqtai nazariga ko'ra, olam abadiy bo'lib, insondagi rux ma'lum muddatdan so'rng boshqa narsalarga ko'rchadi. Pifagor ana shu ta'limot asosida olamdagi xamma narsaning jisman va ruxan qarindosh ekanligini isbotlashga uringan. Pifagorning tabiat va jamiyatdagi «jon»ning ko'rchib yurishi g''oyasi xamda atrof-muxitdagi ja'miki narsalarning birligi va qarindoshligi dunyoni o'rzaro murosa muvozanatida saqlashga dav'at etuvchi sosiologik qarashlar sifatida insoniyat tarixida muayyan rol o'rynaydi.

*2. g'rek demokratiyasi ravnagi davri sosiologiyasi.* Bu bosgich jamiyatshunoslari safiga g'eraklit, Parmenid, Zenon, Empedokl, Anaksagor, Protagor, g'orgiy va boshqalarni kiritish mumkin.

Atoqli grek mutafakkiri **g'eraklit** fikriga ko'ra, xamma narsalar tabiatda faqat bir narsadan yaralgan va shu birlamchi narsaga albatta qaytadi. Bu birlamchi asos esa «olov»dir. Zero, olov tabiatdagi eng faol o'rzgaruvchan xodisadir.

g'eraklit tabiat va jamiyatdagi qarama-qarshiliklar shunchaki o'rzaro raqobat xolida bir-biriga aylanib turadi. Ular moxiyatan yagona asos (olov) dan iborat bo'lganligi sababli, bu modda va xodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar o'rzgaruvchandir va doimiy xususiyatga ega emasdir. g'eraklit ilk daf'a donishmandlik va aqlni ilm va bilimdan farqlay bildi. Ko'rp bilimlilik kishini aqlli, donishmand gilavermaydi. Agar ko'rp bilim olish kishini ogil gilganida g'esiod va Pifagor xam aqlli, donishmand bo'lishar edi»<sup>1</sup>, deb yozadi.

g'eraklitning ijtimoiy qarashlari **Parmenid** va uning shogirdi **Zenon** tomonidan tangid ostiga olinib, dunyo o'rzgaruvchan emas, aksincha, o'rzgarmas moxiyatga ega ekanligini asoslashga urindilar.

g'rek madaniyatining yirik namoyondasi **Empedokl** ilm va ma'rifatning ijtimoiy foydalilik funksiyasini asoslab berdi. U ilm gilish bu befoyda moxiyatlar xususida baxs yuritish emas, balki uni inson ongiga xizmat gildirishdan iborat, deb bildi.

Empedokl fikriga ko'ra, jamiyat xodisalarini o'rzaro birlashtiruvchi va ajratib yuboruvchi ikki kuch boshqarib turadi. Kishilarni o'rzaro birlashtiruvchi, ularni eng insoniy faoliyatga boshlovchi kuch - muxabbat (Empedokl bu kuchni ayni vaqtda mexr, xurmat, garmoniya va xatto Afroditaga xam deb atagan) bo'lib, odamlarni ajratib yuboruvchi kuch bu - nafrat, xasad, joxillikdir.

Empedokldan farq gilib, **Anaksagor** insonning ilm-ma'rifatga intilishidan ko'rzlangan bosh maqsad - atrof muxitni o'rab turgan borliq xamda kosmos moxiyatini anglashdan iborat, deb bildi. U «ilm ilm uchun» degan agida asosida ish tutdi.

**3. Antik dunyo olamining «oltin davri».** Bu davrdagi sosiologik qarashlarni ilgari surgan mutafakkirlar qatoriga insoniyatning buyuk daxolari Sokrat, Levkipp, Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalarni kiritish mumkin.

---

<sup>1</sup> Г.Ф.Асмус. Античная философия. М., Высшая школа, 1999. Стр.22.

**Sokrat** (*Suqrot*) ning sosiologik qarashlarida tabiat va jamiyat jarayonlarida shunchalik ishtirok etish emas, balki unda qanday gilib yaxshi yashash, kamolotga erishish uchun san'at sirlarini bilish zarurligi g'oyasi yetakchidir. Bilim muayyan turdagi predmetlar va xodisalarning umumiylik xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Bilim predmet xagidagi tushuncha bo'lib, bilish tushunchani aniqlashdan boshlanadi.

Sokratning nuqtai nazariga ko'ra, inson faoliyati uning yaxshilik, savob, oriyat, insof xagidagi tushunchalari mazmunidan iborat bo'lib, bu tushunchalarni shaxs qanday tushunishi katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, inson faoliyatini yaxshilash uchun uning fe'l-atvorini va tarbiya to'g'risidagi qarashlari, tushunchalarini tartibga solish zarurdir.

Sokratning buyuk shogirdi **Platon** ijtimoiy taraqqiyot va inson mavqeyi xususida bebaxo fikrlar bayon etgan. Platon o'rzining «Fileb» deb nomlangan asarida insonning ezgulikdan iborat faoliyati guyidagi talablarni bajarish asnosida ro'ry berishi aytiladi: 1) iloxiy g'oya moxiyatini anglash; 2) iloxiy g'oya talablarini xayotga singdirish; 3) tafakkur va bilimlarga ega bo'lish; 4) ilm va san'atning biror turini egallash, to'g'ri fikr gilish masalasiga ega bo'lish; 5) toza, xalol xissiyot vositalardan, masalan, musiqa tovushi, tasviriy san'atdan zavq-roxat ola bilish. Platonning uqtirishiga ko'ra, to'ri fikr gilish malakasiga ega bo'lish deganda biror bir xayotiy voqyea taxlili chog'ida masalaning avval yaxshilik tomonida ro'ry berganligini tushuntirishga intilish, agar bunday tushunishga imkon bo'lmasa, mazkur xodisaning yuz berganligi moxiyatini anglashga intilish, demakdir.

Platon ezgulikni anglash - xudoni anglash, ezgulik tabiatiga ega bo'lish esa xudo moxiyatiga tegishli bo'lish, uning uzviy bir gismiga aylanish, deb o'rgatadi.

Platon insonning ijtimoiy o'rnini belgilashda xar bir kishi dastavval o'rz davlatining fuqarosi bo'lishi lozim, deb ta'kidlaydi.

Platon murakkab ijtimoiy-siyosiy muxitda yashaganligi sababli ideal davlat gurilishi orzusida yashagan. Uning ezgulik asosiga gurilgan ideal davlat tuzumi

guyidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim: 1) donishmandlik; 2) jasorat; 3) xar ishda ogilona me'yorni saqlay bilish; 4) adolat.

Davlat tizimini uch xil strata - ijtimoiy tabaqa - xukmdorlar, xarbiylar va ishlab chiqarishda band bo'lgan mexnatkashlar donishmand boshqaruvchi gurux raxbarligida gormonik tuzumni tashkil etadilar.

Platon Akademiyasining yetuk tolibi, jaxon ijtimoiy tafakkur olamiga xissa qo'rshgan mutafakkir **Aristotel** xisoblanadi.

Aristotel o'rz davridagi mavjud stratifikasion, ya'ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo'llab-guvvatlaydi. Aristotel komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o'rz davlatiga bo'lgan yuksak vatanparvarligini, o'rz ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa xar tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi.

Demak, komillik tizimidagi «davlat - fuqaro - inson» tartiboti Aristotelning davlat va jamiyatni mukammallashtan iborat sosiologik konsepsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki aloxida guruxlar qo'liga topshirib qo'ryilmasligi lozim. Aristotel davlat va jamiyatning ideal maqsadlari mushtarak, umumiy bo'lganligi sababli xam mazmuniy asosi bir xil bo'lgan tarbiyaviy tizim ishga tushmog'i zarur, deb xisoblaydi.

Ijtimoiy jarayon, Aristotel ta'biriga ko'ra, imkoniyatlardan natijalarga o'rtishga bo'lgan intilishdir. Odamlar ijtimoiy jarayonda qancha ko'rp ishtirok etsalar, davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy asoslari shunchalik mustaxkamlanib boradi.

Kishilarning ijtimoiy jarayonlarda yakdil va ommaviy ishtiroki adolat, insof, sadoqat singari tushunchalarga ega bo'lgan umumiy qarashlarni tarkib toptiradi. Davlat tuzumi xamda jamiyatning barqarorligini saqlash uchun kishilarga mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan tug'ilishi mumkin bo'lgan siyosiy-axlogiy va iqtisodiy-ma'naviy xavflar xususida ma'lumotlar berib borish xamda ularda xavotirlik

kayfiyatini shakllantirib bormoq zarur. Shundagina ular davlat va jamiyat mustaxkamligi ustida qayg'ura boshlaydilar.

Davlat boshqaruvida ishtirok etishga ishtiyoqmand va amaldorlik da'vosida bo'lganlar guyidagi sifatlarga ega bo'lishlari lozim: «Mavjud davlat tuzumini chin dildan sevmog'i, katta kuch va energiyaga ega bo'lmog'i,..., odamlarga xayrixox va adolatli bo'lmog'i, asosiy faoliyat mezonini deb odamlar manfaatini davlat manfaatlari bilan uyg'un xolda xalq etish malakasiga ega bo'lmog'i lozim»<sup>2</sup>.

O'lar qanday mamlakatdagi ijtimoiy tartibsizliklar, ingirozlar va davlat to'ntarishlari ijtimoiy tenglikning buzilishidan kelib chiqadi. Ammo tenglik tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra xam miqdor jihatdan, xam mavqye-martabaga ko'ra farqlanadi. Mavqyega ko'ra tenglik jamiyatdagi o'rta obro'li shaxs mavqyei 100-200ta oddiy fuqarolarning mavqyeiga mos bo'lishi mumkin. Shu boisdan mavqyeni xisobga olib ijtimoiy tenglikni amalga oshirish jamiyatda barqaror muxitni saqlash imkoni beradi. Miqdoriy tenglikni ta'minlash uchun esa davlat boshqaruvini amalga oshirishda u yoki bu xudud vakillaridan teng miqdordagi amaldorlarni vazifalarga tayinlashni to'rti yo'lga qo'ryish zarurdir.

Demokratik asoslardagi davlatlarda xokimiyatni egallash uchun gilinadigan to'ntarishlar odatda demagoglar tomonidan amalga oshiriladi.<sup>3</sup> Aristotel jamiyatning ijtimoiy stratifikatsiyasi tizimida barqarorlik, turg'unlik mezoniga amal qilishi zarurligini ta'kidlaydi. O'lar bir shaxs nafaqat mavjud davlat tuzumiga, balki o'z ijtimoiy tabaqasiga xam sodiq qolishi xamda o'z kasbi-kori, xizmat soxasi doirasida kamolotga intilishi lozim. Kishilarning bir soxadan boshqa soxalarga, bir ijtimoiy mavqye doirasidan boshqasiga o'rtishi davlat tartibotlariga umumiy ishonchni pasaytiradi.

Aristotel davlat tuzumini olti xil ko'rinishga tasniflab, ulardan uchasi (monarxiya, aristokrat va politiya) to'g'ri va uchasi (tiraniya, oligarxiya va demokratiya) noto'g'ri davlat tuzumlari, deb xisoblaydi.

Aristotelning tiraniya, oligarxiya va demokratiya asosidagi davlat tuzumlarini noto'g'ri deb tasniflashiga asosiy sabab, bunday davlat tuzumlarida xokimiyat

---

<sup>2</sup> Aristotelъ сочинение , Т.4, С.53.

<sup>3</sup> Aristotelъ, Соч. Т.4,С. 53.



tepasiga zolim shaxslar (tiraniya), boylikka xirs qo'rygan nomunosib shaxslar (oligarxiya) va demokratiya tuzumida garchi ko'rpchilik ozchilik ustidan xukmron bo'lsa-da, ba'zan ijtimoiy-genetik kelib chigishi betayin bo'lgan ayrim fuqarolar xam kelib qolishi mumkin, deb xavotirlanadi. Natijada uzoq davr mobaynida umumiy erishilgan jamiyat farovonligi xam tanazzulga yuz tutadi.

Xullas, Aristotel antik dunyo sosiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'lmish grek sosiologiya maktabiga mantigiy yakun yasagan. Uning sosiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sosiologiya maktabi namoyondalari (Siseron, Lukresiy, Vergiliy, g'orasiy, Ovidiy) ga xayotbaxsh ilxom bag'ishladi, so'ringra esa o'rta asrlar shargining buyuk mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'rz ta'sirini ko'rsatdi. **Mavzu bo'ryicha tayanch atamalar:** *garmonik tuzum, bilim, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy tenglik, antik davr sosiologiyasi.*

Jamoatchilik fikri jamiyat axloqining ifodasi tarzida namoyon bo'rlgani sababli, u axloqning o'rzi bo'rlib xam tuyuladi. Fransuz olimi Berj bu xususda qiziqarli muloxazani o'rrtaga tashlaydi: «Jamoatchilik fikri axloqqa juda o'rxshab ketadi, chunki xar ikkalasi xam jamoani xukm o'rtkazib boshqaradi»<sup>4</sup>.

Jamoatchilik fikrining jamoani katta ishonch bilan boshqarishiga asosiy sabab shundan iboratki, u kishilar orasidagi axloqiy munosabatlar tizimiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rrsatadi.

Axloqiy qarashlar esa kishilarning kundalik turmush tarzi orqali ularning orzu-o'rylari, maqsadlariga erishish yo'rlidagi kurash va baxslarda tuQiladi va bu xatti-xarakteratlar mazmunining jamoatchilik fikri tomonidan baxolana borishi jarayonida shakllanadi.

Axloqiy tushunchalar kishilarning oddiy-odatiy turmush tarzida, kundalik xayot jarayonida tarkib topib, uning amaliy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rrsatadi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan xolati sifatida kishilarning atrof-muxitga munosabatiga va amaliy faoliyat jarayonlariga bevosita ta'sir o'rtkazadi. Shu boisdan xam axloqiy qonunlar el nazdidan ayricha xolatlarda amal qila

---

<sup>4</sup> Плеханов В.Г. Ибранные философские произведения в пяти томах: том III. М., Госкомиздат, 1956, с. 248.

olmaydi, yoxud jamoatchilik fikri asrlar mobaynida shakllangan axloqiy negizlarsiz xech qanday ta'sir-tayziqqa ega bo'rla olmaydi. Zero, inson o'rtmish xotirasi, ma'naviy meros va qadriyatlarsiz, o'rz xalqining Qalaba va maQlubiyatlarsiz tarixiy istiqboldan xam maxrum bo'rlishi shak-shubxasizdir. Shu boisdan xam xar qanday mustabid tuzum eng avvalo xalqning o'rtmishi va o'rtmish bilan bevosita boQliq bo'rlgan axloqiy qarashlar negizini qo'rporishga intiladi.

So'rnggi yillarda umuminsoniy qadriyatlar va umuplanetar axloq normalarini ishlab chiqishga bo'rlgan sa'y-xarakatlar birmuncha guloch yozdi.

Umuminsoniy axloq tamoyillari mazmunining jamoatchilik nuqtai nazariy, uning jamoaviy baxosi asoslariga gurilishi lozimligi bugungi kunda, ayniqsa, dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqarilmoqda. Xususan, amerika olimi Archi Bam jaxon faylasuflarining XV konferensiyasida (kongressida) umumjaxon axloq qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati pishib yetilganligi xamda mazkur katta tadbirning tarixiy jarayonlarda shakllangan va sinovdan o'rtgan insoniy munosabatlar, gumanistik tamoyillar asosidagina tarkib toptirish lozimligini aloxida uqtiradi. Buning uchun esa planetamizning barcha a'zolari uchun umumiy yagona axloq qoidalarini tuzib beruvchi gumita tashkil etish zarurligi o'rrtaga qo'rydi.

Umumjaxon axloqi asoslarini yaratish g'oyasi garchi bugungi kunda xech kimda shubxa uyQotmasa-da, ko'rp yillar mobaynida mazkur ijtimoiy intilishga bir yoqlama yondoshish, yaxshidan illat, savobdan gusur izlash tendensiyasi xukm surib keldi.

Tabiiyki, xalqaro axloq qoidalari kuch yoki gurol vositasida xayotga joriy etilmaydi. Umuminsoniy tamoyillar negiziga guriluvchi bu axloqiy qoidalar faqat jamoatchilik fikri orqaligina boshqariladi va nazorat qilib boriladi.

Xulosa sifatida guyidagilarni aloxida qayd etib o'rtishni zarur deb xisoblaymiz:

1) axloq jamoatchilik fikrining uyg'onish, shakllanish va amal qilishning uzviy manbalaridan sanalgan xolda xalq axloqi yaxlikligining yuzaga kelishida

jamoatchilik fikri xam muxim urin tutadi, bu ikki ijtimoiy xodisa xamma xolatlarda mustaxkam aloqada bo'rlib turadi, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi;

2) jamoatchilik fikri o'rzining shakllanish manbalarining salmog'i, kishilarning uyushqoqlik darajasi, axolining xissiy-emosional potensiali, mantiqiy-intelektual imkoniyatlariga, shuningdek, milliy, iqlimiy, maxalliy va regional shart-sharoitlarga bo'qliqdir;

3) axloq va jamoatchilik fikrining o'rzaro aloqadorlik me'yori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy formasiyasiga, yalpi taraqqiyot uchun tanlangan rivojlanish dasturiga, mantiqiy yo'rnalishlar o'rziga xosligiga, xalq ma'naviyati va milliy o'rziga xosliklar omillariga bo'qliqdir;

4) sovet tuzumi davrida «avval iqtisod, keyin siyosat» aqidasining amal qilishi, iqtisod, siyosat «avval materiya so'rng ong» degan moddiyotchilik shiorlarining g'oyaviy ta'sir-tazyiqi ostida shakllantirilganligini puxta xisobga olish zarurdir. Ma'naviyatning birlamchiligi, umuminsoniy tamoyillar ustivorligini e'lon qilib, ozod jamiyat gurishga kirishganUbekistonda nafaqat iqtisodiy, balki chugur ma'naviy bo'rxronlar botqog'idan muvaffaqiyat bilan chiqilmoqda;

5) jamoatchilik fikri xalq an'ana va urf-odatlariga mustaxkam tayanadi va ularning jamiyat xayotida amal qilishiga imkoniyat yaratadi. Zero, an'analar axloqiy qarashlarning progressiv jixatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi muxim omili, xalqning o'rziga xos qiyofasini saqlab qolish va ximoyalash mezonidir;

6) axloq kategoriyasining muayyan urug', qabila, el-elat va xalq miqyoslaridan xalqaro miqyoslarga o'rsib o'rtish, umuminsoniy tamoyillar negizidagi umumplanetar axloqning tarkib topishida jamoatchilik fikri o'rziga xos ko'rprik vazifasini o'rtaydi. Ayni choqda jamoatchilik fikri va axloq jamiyatda umumiy murosa va madoraning turg'un maromini ta'minlash yo'rlida o'rzaro munosabatlikda, tadrijiy takomil jarayonidagi muvofiqlikda rivoj topa boradi, bir-birini to'ldiradi, bir-biriga uyg'un tarzda mukammalashadi.

Umumdan xususni yuzaga kelish oyasini rivojlantirgan nemis sosiologi Maks Veber jamiyatdagi barcha empirik-amaliy narsalarni tartibga solishning qulay umumli bo'rlgan ideal tiplari, ya'ni xamma narsalarni muayyan gavdalantirish

konsepsiyasini ishlab chiqdi. Maks Veber nuqtai nazariga ko'ra, feodalizm, kapitalizm yoki guldorlik tuzumlari jamiyatda tarixan shakllangan formasiyalar sifatida emas, balki axoli turli tabaqalari o'rtasidagi munosabatlarning ideal muvofiqlashuvi, qat'iydashgan uyg'unlashuvi tarzida talqin etiladi. Jamiyatdagi mavjud tabaqa va guruxlardan iborat rang-barang stratalar tasnifi xam ana shu ideal muvofiqlashuv moxiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi ilmiy asoslanadi. M. Veber stratifikasion jarayonlar moxiyatini ochishda rasionalistik yondoshuv omilining muximligini aloxida ta'kidlaydi. M. Veber nuqtai nazariga ko'ra, rasionalizm Yevropa xalqlariga xos bo'olib, bu yondashuvni ijtimoiy voqyelikning barcha soxalariga joriy etish zarurdir. Xususan, iqtisodiyotda - ikkiyoqlama xisob-kitoblar tizimiga o'rtish, axloq borasida to'g'ri va teng munosabatlar amal qilishiga erishish, siyosatda - parlamentarizm, rasmiy xuguq va ma'muriy boshqarish institutlarining joriy etilishi, musiqa borasida Yevropaga xos nota tizimi va unga mos texnik uyg'unlashuv me'yorlariga o'rtish targ'ib etiladi. Veber umumplanetar axloq va turmush tarzi faqat Yevropa xalqlarigina xos, deb xisoblaydi.

Stratifikasiya sosiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruxlari va ularning tabaqalanish belgilari tizimini o'rzida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikasion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruxlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning asosan mulkka bo'rlgan munosabat asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondoshuvni inkor etib, jamiyat ma'lumot, ruxiyat, ma'ishiy shart-sharoitlar, bandlik darajasi, daromad ko'rlamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asoslab beradilar. Marksizmga tanqidiy ilmiy yo'rnalish sifatida asoslab berilgan mazkur yondoshuv tarafdorlari jamiyatda turmush tarzi, ma'lumoti, kasbi va boshqa rang-barang farqlanmalarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruxlardan tashqari, yuqori tabaqa, o'rrta tabaqa va guyi tabaqa doimiy amal etishini ta'kidlaydilar. Bunday tabaqalar yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy farqlarning o'rziga xos yakuniy xosilasi, sintezi sifatida namoyon bo'rladi. Keyingi 20 yilda rivojlangan o'arb, xususan AQShda o'rrta tabaqa konsepsiyasini o'rrta sinf konsepsiyasi bilan ayni uyg'unlashtirish tendensiyasi yuz bermoqda. urta sinf jamiyatning o'ziga xos milliy, irqiy,

intellektual va moliyaviy tenglik va barqarorlik me'yorlari sifatida o'ziga xos ijtimoiy konsensus vazifasini xam o'rtamoqda. Shu boisdan xam o'rrta sinf xissasining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida xam talqin etilmoqda. urta sinf vakillari miqdori esa ulardagi ko'rchmas mulk xajmi, bankdagi mablag'lari, turli manbalardan olgan foydalari va boshqa daromadlardan davlatga to'rlanadigan soliqlari salmoQiga ko'rra yilma-yil aniqlab boriladi. o'arb mamlakatlari turmush tarzining o'rziga xos barometri vazifasini o'rtayotgan o'rrta sinf fenomeni garchi rivojlangan Yevropa mamlakatlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy qadriyat darajasida baxolanib kelinayotgan bo'rlsada, bu qadriyat o'rrta sinf vakillarini yuqori va guyi sinf vakillari bilan ma'naviy yaqinlashtirish imkonini bermadi.

Ma'lumki, xar qanday taraqqiyot tabiiy ravishda bir tomondan, shaxsning individuallashtirish jarayonlarini, o'rzlikka uyg'unlashuv xolatlarini kuchaytirib, shaxslarning yakka tarzda aloxida faoliyat bilan mashg'ullik darajalarini oshirsa, ikkinchi jihatdan, jamiyat a'zolarining mulk, kasb, irq, millat, jins, xudud, mayl, maqsadlar, didlar asosida tabaqalanishuv jarayonlariga kuchli turtki beradi. Shu boisdan xam stratalar ko'rpligi jamiyatning o'rz-o'rzini ichki boshqaruvi maxsuli va sivilizasion jarayonlarining tabiiy ifodasidir.

## **ADABIYOTLAR:**

1. **Karimov I.A.** Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. - Tafakkur. 1998. №2
2. **Karimov I.A.** Tarixiy xotirasiz kelajak yo'rq.- Muloqot. №5. 1998.
3. **Karimov I.A.** Donishmand xalqimizning mustaxkam irodasiga ishonaman. - «Fidokor» gazetasi. 2000 yil. 8 iyun.
4. **Karimov I.A.** Ma'naviy yuksalish yo'rlida. - T.:Uzbekiston, 1998.
5. **Karimov I.A.** Vatan sajdagoq kabi muqaddasdir. - T.:Uzbekiston, 1999 yil.
6. **Karimov I.A.** Olloh qalbimizda, yuragimizda. - T.:Uzbekiston, 1999 yil.
7. **Karimov I.A.** Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1999.
8. **Karimov I.A.** Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. - T.: «O'zbekiston», 2000.
9. **Karimov I.A.** Barkamol avlod orzusi. - T.: «Sharq», 1999.
10. **Karimov I.A.** Milliy istiqlol mafkurasi. - T.: «uzbekiston», 2000.
11. **Karimov I.A.**Uzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. - T.: «O'zbekiston», 1996.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T: «O'zbekiston», 1999.
13. O'zbekiston Respublikasining qonunlari.- T: «O'zbekiston», 1999.
14. **Aliqoriyev N.S. va boshqalar.** Umumiy sosiologiya. Mualliflar jamoasi. - Bishkek.: 1999.

15. **Bekmurodov M.B.** Sosiologiya asoslari. - T.: Fan, 1994.
16. **Burganova L.A.** Institusionalizatsiya sosiologii v SShA. Sosis, M. Nauka, №11, 1998.
17. **Begmatov A.** Sosiologiyaga kirish. - Andijon, 1995.
18. **Yunusov K.** Sosiologiya. Metodik o'rguv qo'rllanmasi. - Andijon, 1997.
19. **Xolbekov A., Idivov U.** Sosiologiya. Lug'at. - T.: Ibn Sino, 1999.
20. Ensiklopedik lug'at. 1-tom. - T:Ubek. Bosh Ensik. 1988

